
Yangi hayot - Yangi O'zbekiston shiori ostida bayram tadbiri bo'lib o'tdi

Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyida mustaqilligimizning 32 yilligi hamda Yangi hayot - Yangi O'zbekiston shiori ostida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda Samarqand davlat chet tillari instituti akademik litseyi direktori F.Sh.Ro'ziqulov hamda akademik litsey ijrochi direktori Z.M.Bazarovlar o'quvchilarga yangi 2023/2024-o'quv yilida yangi natijalar va yangi marralarni zabt etishlarini tilab ularni darsga kuzatishdi.

Akademik litsey direktori dars jarayonlarida qatnashib o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

